

## XOJA AHMAD YASSAVIY

### Xudoyberdiyeva Gulruxsor

Andijon Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti  
Pedagogika fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)  
1-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Xoja Ahmad Yassaviy-tasavvufning mashhur namoyondalari-dan biri, turkiy she'riyatning yirik vakillaridan. "Yassaviyat" tariqatining asoschisi. (G'ijduvoniylar) Naqshbandiy.

**Kalit so'zlar.** Xoja Ahmad Yassaviy, tariqat, Yassaviyat tariqati, hikmatlar, Yas-saviy hikmatlari, Arslon bobo, G'ijduvoniylar, Naqshbandiy, tasavvuf ilmi.

Xoja Ahmad Yassaviy-(Yassi yaqinidagi Sayram qishlog'ida taxminan XI asrning 2-yarmida) 1100-yilda Shayx Ibrohim xonadonida dunyoga keladi. U tasavvufning mashhur namoyondalaridan biri, turkiy xalqlarning buyuk shoiri. Keyinchalik u o'z ona yurtini asarlarida "Ul muborak Turkiston" deb tilga oladi. Yassaviy tug'ilganidan so'ng, ko'p o'tmay onasi – Muso Shayxning qizi Oysha xotun olamdan o'tadi. Yetti yoshida esa otasi vafot etadi. Otasi Shayx Ibrohim javonmardlik tariqatiga mansub nufuzli zotlardan bo'lgan. Kichik Ahmadning tarbiyasi opasi Gavhar Shahnoz zimmasiga tushadi. Opasi bilan Yassi shahriga ko'chib o'tishgach, Ahmad dastlabki ta'limotni Yassida mashhur olim Shahobiddin Isfijobiydan oladi. So'ngra u yerdagi bir qator tolibi ilmlar kabi Arslon bobo qo'lida tarbiya va tahsil oladi. Aynan shu shaharda Yassaviy botin ilmi sirlarini mukammal o'zlashtiradi. O'sha zamonlarda Movarounnahrning ilm-ma'rifat markazlaridan bo'lgan Buxoroda ko'plab turkistonlik toliblar yig'ilishgan. Ustozi Arslon bobo ko'rsatmasi bilan Yassaviy ham Buxoroga yo'l oladi. Buxoroda arab, fors tillarini o'rganish bilan bir qatorda, forsiyda yaratilgan tasavvufiy adabiyot bilan tanishadi. Xoja Abduxoliq G'ijduvoniylar, Abdulloh Baqriylar, Xoja Hasan Andoqiylar bilan hamsuhbat va hammaslahat bo'lib, davrning eng peshqadam olimi va so'fiysi Shayx Hamadoniylar muridlari qatoridan joy oladi. Shayx Hamadoniylardan suluk odoblarini o'rganadi, ilm-u saboqlaridan bahramand bo'ladi. Ahmadning o'zi "Ustoz Yusuf Hamadoniylar huzuriga 23 yoshida borganini va ul Hazratning tarbiyasiga noil bo'lg'onligini" aytadi. U o'z ustozining eng ishongan va e'tiborli xalifalaridan edi. Sharqshunos olim Orif Usmonning ma'lumotlariga ko'ra, Abdulholiqlar G'ijduvoniylar kunlardan bir kuni Yusuf Hamadoniylardan shogirdlarining taqdiri xaqida so'zlab berishni

iltimos qilgan. Shunda ustoz "Mening asl halifalarim avval Ho'ja Abdullo Bakriy, so'ngra Ho'ja Xasan Andoqiy, undan so'ng Xoja Ahmad Yassaviydir. Xoja Ahmad Yassaviy o'z navbati bilan halifalik qilganidan keyin bir oz vaqt o'tgach, o'z vatani Turkistonga ketadi. So'ngra uning o'rniga sen halifalik qilasan" – degan ekan. Voqealar ustoz Yusuf Hamadoniy aytganidek sodir bo'lib, keyinchalik Buxorodan o'z yurti Yassiga qaytgan Ahmad madrasa va honaqa qurdirib, o'z atrofiga ko'plab shogirdlarni to'playdi. Ahmad Yassaviy tarbiyalab yetishtirgan shogirdlar Mansur bobo (Arslon boboning o'g'li), Abul Malik Oto Tosh Ho'ja (Zangi boboning otasi), Hakim Oto (Sulaymon Boqirgoniy), Zangi Oto va boshqa ko'plab tolibi ilmlardir. U o'zi asos solgan "Yassaviya" tariqatini o'z shogirdlari orqali Turkiston va Shosh atrofidagi viloyatlarga tarqata boshlagan. U so'fiylik g'oyalari, shuningdek, o'z tariqati asoslarini targ'ib etishda she'rlaridan, hikmatlaridan foydalanadi.

Bundan tashqari, ko'p adiblar Yassaviy haqida bir qancha fikrlar aytib o'tishgan. Alisher Navoiy Yassaviy to'g'risida "Maqomoti oliy va mashhur, karomati matavoliy va nomahsur ermish. Murid va asg'ob g'oyatsiz va shoh-u gado aning irodad va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish"-deydi. Bu fikr Yassaviyning Yassiga qaytib kelib, yangi bir tariqatga asos solgan murshid sifatida shuhrat topgan davrlariga tegishlidir. Yassaviy turkiy xalqlarni islomga yanada jalb qilish va tasavvuf g'oyalarini omma ko'ngliga chuqur singdirish maqsadida she'riyatdan ham foydalangan. Abdurauf Fitratning ta'kidlashicha, Yassaviyning "adabiyotda tutgan yo'li sodda xalq shoirlarimizning tutg'on yo'lidir. Uning hikmatlari vaznda, qofiyada, uslubda xalq adabiyoti atalgan she'rlar bilan barobar. U yozgan asari nafaqat turkiy xalqlar balki butun dunyoga nasihat bo'ladigan asar hisoblanadi.

Tariqat (arabcha: yo'l, usul) — so'fiylikka xos tushuncha. XI asr boshlariga kelib tasavvufning nazariy asoslari ishlab chiqildi, so'fiylarning amaliy, ruxiy-psixologik mashqlari, o'zini-o'zi tarbiyalash va chiniqtirish tadbir, usullari shakllandi. Tariqat, ma'rifat, haqiqat degan tushunchalar yuzaga kelgan. U uch ma'noda ishlatiladi: 1) umuman so'fiylik yo'li; 2) so'fiylikning muayyan tarmog'i, yo'nalishi; 3) so'fiylik bosqichlaridan biri. So'fiylikda Tariqatlar g'oyatda ko'p bo'lgan. O'rta Osiyoda esa, ilgaridan naqshbandiylik (Bahouddin Naqshbandiy), kubroviylik (Najmiddin Kubro), yassaviylik (Ahmad Yassaviy) tariqatlari tarqalgan.

Tasavvuf ilmi. Xo'ja Ahmad Yassaviy qarashlari mohiyatini anglash uchun shubhasiz, tasavvuf ta'limoti ruknlariga murojaat qilish lozimdir. Tasavvuf o'zini anglash va shu orqali Allohni sevib tanish va bilish ilmi hisoblanadi. O'z-o'zini anglash bu o'z nuqsonlarini, ayb-u qusurlarini anglash demakdir. Shunday ekan, tasavvuf insonning o'z vujudi, nafsiga qarshi isyoni

o'z-o'zidan qoniqmaslik, noroziligi sifatida talqin qilish o'rinlidir. Tasavvuf haqiqiy ma'noda insonparvar ta'limot hisoblanadi.

Yassaviylik tariqati— tasavvufdagi tariqatlardan biri. Asoschisi Ahmad Yassaviy. 12-asrda O'rta Osiyoda paydo bo'lgan. Yassaviylik ta'limotiga ko'ra, komil murshid (shayx)ning zimmasidagi birinchi vazifa oliy insoniy sifatlarni o'zida mujassam etish, shariat ilmini mukammal egallab, so'ng muridlarni ortidan ergashtirishga erishishdir. Yassaviylikka ko'ra, murid quyidagi talablarga rioya qilishi zarur: biror kishini o'z murshididan ustun qo'ymasligi va unga mutlaq ehtirom bilan bog'lanishi; zikr va idrok sohibi bo'lishi, ustozining ramzi va ishoratlarini oson ilg'ashi; so'zda to'g'ri, va'daga vafodor bo'lishi; ustozining amr, taklif, va'z va nasihatlarini nazardan soqit etmay kamolga intilishi. Haziniyning "Javohir ul abror" asarida Yassaviylikning asoslari quyidagicha qayd qilingan: tavhidga asoslangan tasavvufiy tushunchalar; shariat va payg'ambarning sunnatiga mutlaq bog'liqlik; shariatga tayangan tariqat; riyozat va mushohada; xilvat va zikr. Unda ilm ma'rifat egallash, himmat va saxovat tuyg'ularini kamol toptirish, nafsga qarshi kurashda sobit bo'lish, halol mehnat bilan rizq topishga alohida ahamiyat berilgan. Yassaviylik zikri jahriyga asoslanilgan. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, insonning asl vatani mutlaq borliq. Inson shu borliqda paydo bo'lgan, o'sha muqaddas borliqqa qaytmog'i muqarrar. Shu bois haqiqiy sufiy vatan va vatanparvarlik borasida tor tushunchaga berilmasligi kerak. Yassaviylik ko'plab olim, shoir va davlat arboblari qalbini zabt aylagan. U faqat Movarounnahrda emas, balki Xuroson, Ozarbayjon, Turkiyada ham keng tarqalgan.

Hikmatlar-Aql-zakovat, donolik va uning ifodasi bo'lgan, uni aks ettiruvchi narsa yoki gap.

Ahmad Yassaviy hikmatlaridan:

1. Ummat bo'lsang g'ariblarg'a tobe bo'lg'il  
Oyat, hadis har kim aytsa some bo'lg'il  
Rizqu ro'zi har kim bersa qone' bo'lg'il  
Qone' bo'lib shavq sharobin ichdim mano  
Madinag'a Rasul borib bo'ldi g'arib  
G'ariblikda mehnat tortib bo'ldi habib  
Jafo tortib yaratganga bo'ldi qarib  
G'arib bo'lib uqbolardin oshdim mano  
Oqil ersang g'ariblarning ko'nglin ovla  
Mustafodek elni kezib etim kovla  
Dunyoparast nojinlardan bo'yin tovla  
Bo'yin tovlab daryo bo'lib toshdim mano

Ishq bobini Mavlom ochgach menga tegdi  
Tufroq qilib, hozir bo'l deb bo'ynim egdi  
Bo'ron sifat malomatning o'qi tegdi  
Paykon olib yurak-bag'rim teshdim mano

\* \* \*

2.Oshiq ermas jononaga jon bermasa,  
Dehqon ermas ketmon chopib non bermasa,  
Munda yig'lab oxiratda jon bermasa,  
Yo'lda qolg'on bo'yi xudo olg'oni yo'q.  
Ey bexabar, ishq ahlidin bayon so'rma,  
Dard istagil, ishq dardiga darmon so'rma,  
Oshiq bo'lsang, zohidlardan nishon so'rma,  
Bu yo'llarda oshiq o'lsa tovoni yo'q.  
Zohid bo'lma, obid bo'lma, oshiq bo'lg'il,  
Mehnat tortib ishq yo'lida sodiq bo'lg'il,  
Nafsnı tepib dargohig'a loyiq bo'lg'il,  
Ishqsizlarning ham joni yo'q, iymoni yo'q.

\* \* \*

3.G'ariblikda g'arib bo'lgan g'ariblar  
G'ariblar holini bilgan g'ariblar  
Sabab birlan yiroq erga boribon  
Qarindosh qadrini bilgan g'ariblar  
Suv saganda suvga muhtoj bo'lg'on  
Tirikda zor o'lub, o'lgan g'ariblar  
Kishi bilmas g'ariblar holi nedur

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylar Buxorodan 40 kilometr uzoqlikdagi G'ijduvon shahrida tavallud topgan. Otasi Imom Abduljamil Malatya shahridan (hozirgi Turkiya) kelgan[1]. Onasi olijanob oiladan chiqqan. Abdulxoliq G'ijduvoniylar Imom Molik avlodidan bo'lgan deb taxmin qilinadi[2]. G'ijduvoniylar diniy ilmi Buxoroda olgan. U o'sha davrda mashhur olim Alloma Sadriddinning shogirdi bo'lgan. G'ijduvoniylarning kelishi bilan Muhammad Bahouddin Naqshbandgacha tariqat „Tariq hojigan“ (Xodjeganiya) deb atala boshlandi. Abdulxoliq G'ijduvoniylarning ustozı Yusuf Hamadoniylar bo'lib, u ham Ahmad Yassaviylarning shayxi edi. Abdulxoliqning o'ziga xos xususiyati yashirin zikr, bu yo'lga kirganlarning ma'naviy o'zgarishining asosi bo'lib, tariqatning o'n bir tamoyilini ilgari surgan. Holbuki, Ahmad Yassaviylar baland zikr tarafdori bo'lib qoldi. G'ijduvoniylar o'z yo'lini Xorazm va Xurosonga yoygan. Asrlar o'tib, bu tariqatlarning ikkalasi ham butun O'rta Osiyo, Onado'li va Bolqon

mamlakatlariga tarqaldi. Rivoyatlarga ko'ra, Xoja Abdulxoliq Alloh taolo uni ruhiy kamolotda to'g'ri yo'lni ko'rsata oladigan kimsa bilan birga olib kelishini kuta boshlagan. Tez orada Xizr bilan uchrashdi. Xizr ham otasining ustoz edi. Xizr Abdulxoliqni ruhiy o'g'il sifatida qabul qilib, unga „vukuf adedi“ (zikir sanash zarurati) va „yashirin zikr“ni o'rgatadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Abu Bakrga Sevr g'orida birinchi marta o'rgatgan bu zikir turi Abdulxoliq G'ijduvoniyni unga kirishi bilan yana o'z ahamiyatini topdi. Xoji Abdulxoliq vafotidan keyin bu zikir turi Xojigan tariqati tarafdorlari tomonidan yana unutildi, ammo Abdulxoliqning uveysi (g'oyib) muridi bo'lgan Shoh Naqshband nihoyat yashirin zikrni qayta tikladi. Shuningdek, Xizr G'ijduvoniygga yashirin zikrdan tashqari tavhid zikri — „nafi va isbat“ (inkor va tasdiq)ni ham o'rgatgani aytiladi.

G'ijduvoniyni haqiqiy murshidi Yusuf Hamadoniy edi. Biroq u bilan tanishish Xizr sharofati bilan yuz berdi. Taxminan yigirma yoshida o'ziga ustoz bo'lgan hoji Abdulxoliq qisqa fursatda bilimni o'zlashtirib oldi. Abdulxoliq bir qancha musulmon davlatlariga sayohat qilib, bir muddat Suriyada yashadi. Hayotligida ham u haqidagi yaxshi shuhrat Islom xalifaligining barcha hududlariga tarqaldi. Minglab odamlar uni ko'rish va eshitish uchun kelishgan.

Rivoyat.

Bir darvesh undan so'radi: "Agar Alloh menga do'zax va jannatni tanlash erkinligini bergan bo'lsa, men do'zaxni tanlayman. Chunki jannat mening nafsim hohlagan narsadir. Men nafsning turtki va istaklariga qarshi kurashmoqchiman. Bunga Abdulxoliq G'ijduvoniyni javob berdi: — Sizning fikringiz nafsdan chiqqani uchun xato va noto'g'ri. Qulning irodasi yoki tanlovi qanday qiymatga ega bo'lishi mumkin? Bizning ishimiz Rabbiiy bizni olib boradigan joyga ergashishdir. U bizga nima buyursa, biz bajarishimiz kerak. Va faqat bu bandaning haqiqiy xizmati va nafsga qarshiligidir.

Abdulxoliq G'ijduvoniyni hayoti haqida to'liq ma'lumot yo'q, uning o'limi haqida ham kam ma'lumot kam. Ayrim manbalarda uning 1179, 1189 yoki 1220 yillarda vafot etgani qayd etilgan. Ammo uning shayxi 80 yilga yaqin yashab, 1140-yilda G'ijduvoniyni 20 yoshda vafot etganidan kelib chiqib, uning o'lim sanasini 1199-yil deb atash mumkin. G'ijduvoniyni qabri Samarqandga yo'l bo'yida, Buxorodan 40 kilometr uzoqlikda joylashgan G'ijduvon shahrida joylashgan.

**XOJA ABDULXOLIQ G'IJDUVONIY AYTGANLARIDAN.**

Ey, mening o'g'ilginam, senga nasihat qilayin, taqvo (parhezgarlik)ni o'zingga shior qilib ol, ibodat vazifalarini doimo bajar. O'z holatingni har doim kuzatuvchi bo'l. Haq taolodan doimo qo'rquvda bo'l. Xudo taoloning,

Rasulullohning, ota-onaning va barcha mashoyixlarning haq-huquqlarini ado qiluvchi bo'liki, bu xislatlar bilan Haq taoloning roziligiga musharraf bo'lursan.

\* \* \*

Xoh oshkora bo'lsin, xoh pinhona bo'lsin, xoh Qur'onga qarab bo'lsin, xoh yoddan bo'lsin, Qur'on o'qishni aslo tark qilma. Qur'onni fikr bilan, qo'rquv va yig'i bilan o'qi. Barcha ishlarda Qur'onga ruju' qilgilki, Qur'on xalq uchun Haq taoloning hujjatidir.

\* \* \*

Ilm qidirishdan bir qadam ham uzoqlashma, fiqh ilmi va hadis ilmini o'rgan. Taqlidchi so'fiylardan uzoq bo'lginki, ular din yo'lining o'g'rilaridir va musulmonlarni yo'ldan uruvchidirlar.

\* \* \*

Hamisha sunnatga amal qil, o'tmishdagi ulug' ulamolarning mazhab (yo'llar)idan yurginki, har qanday bid'at makruhdir. Yoshlar va ayollar bilan doimiy suhbatda bo'lma. Bid'atchilar va boylar bilan ulfat bo'lmaginki, ular seni dindan ayiradilar. Suhbat qursang, faqirlar bilan qur, o'z yukingni o'zing ko'tar, halol yeginki, halollik yaxshiliklarning kalitidir. Haromdan qochginki, aks holda Haq taolodan uzoqlashasan... Halol yeginki, bundan ibodatning halovatini topasan...

\* \* \*

Yaxshi nomga ega bo'lay desang, nom chiqarma. Nafsing xor bo'lishi uchun ko'p safar qil. Mashoyixlarning hurmatini joyiga qo'y....Birovning maqtoviga uchma. Birov yomonlasa, xafa bo'lma. Xalqning maqtashi yoki yomonlashi sen uchun befarq bo'lsin. Xalq bilan chiroyli muomala qil. Doimo adab saqla. Barcha holatda yaxshiga ham, yomonga ham lutfu marhamat bilan muomala qil.

\* \* \*

Aslida zuhd shundayki, dunyoning tamomi moli uning qo'lida bo'lsa ham, dilida molu dunyoga zarracha mehr qo'ymaydi. Bunday kishi yetuk kishidir. Uning moli dindur.

\* \* \*

So'radilarki, bemor dilning davosi nima? Shayx — Oллоh uning ruhini muqaddas qilsin—buyurdilar: "Uning davosi shuki, ulamolarning suhbatiga intiladi. Ularning xizmatida turadi. Ularning aytganini qabul qilib, mashoyixlar huzurida bo'ladi. Shundagina uning dilidan dunyoga bo'lgan muhabbat ketadi". Rasululloh aytadilar: "O'lim kelmasidan avval unga tayyorgarlik ko'ringlar".

\* \* \*

Rizo — bu shodlikdir. Ya'ni Haq taolo tomonidan neki balo va kulfat yetsa, bunga xushnud bo'ladi. Va ko'nglimiz bu balolarga qarshi e'tiroz qilmaydi, chunki balolar do'stdan kelgandir.

\* \* \*

Dil zikrining to'rtta sharti bor: birinchisi shuki, shayx qaysi tartibda o'rgatgan bo'lsa, shu tartibda aytadi. Natijada "Azkurkum" (Sizlarni yodlayman) so'zining gulidan meva hosil bo'ladi. Ikkinchisi shuki, luqmada ehtiyot bo'ladi, shubhali luqma dilni qoraytiradi, qoraygan dildan esa zikr hosili chiqmaydi.

\* \* \*

Bilginki, dil ibodati muhabbatdir. Chunonchi, Haq taolo buyuradi: "Agar sizlar Allohni sevsalaringiz, bas, menga tobe bo'linglar, shunda Alloh ham sizlarni sevadi". Rasululloh aytadilar: "Kimki Allohning rasulini sevsa, Alloh ham uni sevadi".

U tug'ilgan qishloq Qasri Hinduvon (keyinchalik Bahouddin Naqshband sharafiga Qasri Orifon) deb atalgan. Uning oilasi va farzandlari to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Lekin Bahouddin Naqshband Muhammad payg'ambar avlodlariga mansub sayyidzodalardan ekanligi qayd etilgan va ota tomondan 11-imom Imom Xasan al-Askariyning ikkinchi o'g'li Sayyid Ali Akbarni avlodi hisoblanadi. Otasi Muhammad Buxoriy to'quvchi hamda o'yma naqsh soluvchi (naqshband) bo'lgan. Bahouddin Naqshband taqdirida bobosi Sayyid Jaloliddin Buxoriyning alohida xizmati bor. U sufiylar bilan yaqin aloqada edi. Shu sababli nabirasida ilohiyotga katta qiziqish uyg'otdi. Bahouddin Naqshbandning birinchi piri — ustoz Xoja Muhammad Boboyi Samosiy edi. Keksa shayx yosh Bahouddin Naqshbandni tarbiyalashni o'rinbosarlaridan bo'lmish Amir Sayyid Kulolga topshirdi. U tariqat bobida bilganlarini o'rgatib bo'lgandan keyin shog'irdiga ijozat beradi. Bahouddin Naqshband ilm istab, yassaviya tariqati shayxlarining mashhur vakillaridan bo'lmish Qusam shayx oldiga, Naxshab (hozirgi Qarshi) shahriga boradi. Uch oy undan ta'lim oladi. Bahouddin Naqshbandning bu pirga ixlosi baland bo'lgan, ayni chog'da Qusam shayx ham uni o'z o'g'lidek bilib, muridiga cheksiz hurmati tufayli umrining oxirigacha Buxoroda yashab, shu yerda vafot etadi. Bahouddin Naqshbandning deyarli butun umri Buxoro va uning atrofidagi qishloqparada sufiylik bilan o'tgan. U ikki marta haj qilgan. Ikkinchi safarida Bahouddinga shogirdi Xoja Muhammad Porso hamrohlik qilgan. Safardan qaytishda Nishopur va Hirotda to'xtashgan, u yerlik mashhur avliyolar bilan uchrashib, suhbat qurganlar. Naqshbandiy Hirotda biroz muddat yashagan. Keyin yana Buxoroga qaytib, qolgan umrini vatanida

o'fkazgan. G'aribona hayot kechirgan, faqat o'z mehnati — kimxobga naqsh (gul) solish bilan kun ko'rgan. Xizmatkor yoki qul saqlashni gunoh deb bilgan.

Ta'limoti. Bahouddin Naqshband xalq orasida „Balogardon“ (ya'ni duo bilan baloqazoni daf qiluvchi) unvoni bilan ham mashhur. O'z ta'limotini yaratishda Yusuf Hamadoniy va Abduxoliq G'ijduvoniy nazariyalariga asoslangan. Ta'limotining asosida „Dil-ba yor-u, dast-ba kor“ („Ko'ngil Xudoda bo'lsin, qo'ling mehnatda“) degan shior yotadi. Tariqati hayotlik davridayoq mashhur bo'lgan. Xoja Muhammad Porso va Xoja Alouddin Attor ta'limot nazariyasini ishlab chiqqanlar. Keyinchalik bu ta'limot ortidan oddiy xalqdan tashqari Buxoro va Samarqand ulamolari ham ergashishgan. Naqshbandiya tariqati keyingi asrlarda, Afg'oniston, Misr, Hijoz, Eron, Turkiya va shimoliy Kavkazga yoyiladi. XVI asrda Hindistonda ham tarqala boshlaydi.

Ilmiy merosi. Bahouddin Naqshbandiydan bizgacha bir qator asarlar yetib kelgan. Shamsutdin Somining „Qomus al-alom“ asarida qayd etilishicha, Naqshbandiyning „Hayotnoma“ nomli she'riy asar va „Daloyil ul-oshiqin“ („Oshiqlar dalili“) nomli tasavvufga oid asar yozgan. Naqshbandiydan bizgacha ruboiylar ham meros qolgan. Rossiya Fanlar akademiyasining Sankt-Peterburgda joylashgan Sharqshunoslik instituti fondida Bahouddin Naqshbandiyning „Avrod“ asari qo'lyozmasi saqlanadi. 2000-yilda „Avrod“ asari o'zbek tiliga tarjima qilingan. Ali ibn Ahmad G'uriy „Avrod“ asariga sharh yozgan. Bu sharhning qo'lyozma nusxasi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda.

#### HIKMATLARI.

Aytar edilar: «Haqning xalqi bilan emas, Haqning o'zi bilan mujovarat (yonma-yon) bo'lmoq kerak.

\* \* \*

Aytar edilar: «Ulug'larning so'zidanki, tirik mushuk o'lik sherdan yaxshiroqdin».

\* \* \*

Aytar edilar: “Musulmonlik — iloji boricha hukmlarga bo'ysunish, taqvoga rioya qilish, amalni bajarishga intilish va bekorlikdan uzoqda bo'lib, nuri safo va rahmat hamda valoyat darajasiga yetishish vositasidir. Avliyolarning aziz manzili va maqomlariga mana shu sifat parvarish orqali yetiladi”.

\* \* \*

Aytar edilar: «Hazrati Azizon\* alayhi-r-rahma va-r-rizvondan: «lymon nima?» deb so'radilar. “Uzilish va yetishish» deb javob berdilar.

\* Hazrati Azizon — Xoja Ali Romitaniy (XDK izohi)

\* \* \*

Aytar edilar: “Agar adabdan ozgina nuqsonga yo'l qo'ysang ham nimaiki qilsang beadablik ko'rinadi».

\* \* \*

Aytar edilar: «Agar do'st aybiga boqsak, do'stsiz qolamiz, hech kim dunyoda beayb emas».

Bayt:

Hosili daryo na hamin dur buvad,

Yak hunar az odami pur buvad.

Tarjimasi:

Dengizdan hamisha izlamagin dur,

Odamga bir hunar bas, ezgu turur.

#### **MANBALAR:**

- 1.O'zbekiston tarixi 7-sinf (102-105-betlar).
- 2.Dunyo dinlar tarixi 10-sinf (73-bet).
- 3.Arboblar.uz.
- 4.Hikmatlar.uz.
- 5.«O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2003 yil 48-sonidan.
- 6."Tariqat odobi"risolasidan.
- 7.Najmiddin Komilov"Tasavvuf"kitobidan.